



## HAMZA HAKIMJODA NIYOZIYNING ADABIYOTDAGI O'RNI

**Erkaboyeva Gulbahor**

*Andijon tuman 3-sون kasb-hunar maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti yo'li, drammaturgiyasiga qo'shgan hissasi, maktab ochganligi va darsliklar yaratganligi haqida tushuncha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** yengil adabiyot, qiroat kitobi, g'ayrat kutubxonasi.

**Аннотация:** Представлено понимание жизненного пути Хамзы Хакимзада Ниязи, вклада в драматургию, открытия школы и создания учебников.

**Ключевые слова:** легкая литература, чтение, библиотека увлечений.

**Annotation:** An understanding of Hamza Hakimzad Niazi's life path, contribution to drama, opening a school and creating textbooks is presented.

**Key words:** light literature, reading, library of hobbies.

Hamza millatdoshlariga ma'rifat tarqatish uchun vaqtini ham, mablag'ini ham, jonini ham ayamagan. Ammo millat dushmanlari uning erkin faoliyat ko'rsatishiga yo'l bermaganlar. Ma'rifatchi shoir o'zi ochgan yangi maktablar uchun yangicha yo'nalishdagi o'quv ashyolari kerakligini his etganligi sababli o'sha yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" singari darslik va majmular yaratgan. O'z mablag'i hisobidan maktab ochib, uni kerakli zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlab, maosh olmay ishlaganligiga qaramay, Hamza rus amaldorlari tomonidan siuvuga olindi. Ammo shoir tanlagan yo'lidan qaytmadi.

Shoir Marg'ilonda "G'ayrat" kutubxonasini ochdi. U kutubxona yordamida kishilarga ma'rifat tarqatish maqsadida uning qoshida bosmaxona va nashriyot tashkil qilib, matbuot nashrlarini yo'lga qo'ymoqchi bo'ldi. Uzoqni ko'ra oladigan Hamza o'zbek xalqi hayotiga yangicha maktabdan tashqari teatr ham kirib borishi zarurligini anglatdi. Hamza o'zbeklar orasidan birinchi bo'lib, 1908-yildayoq sahna asari yaratgan. Bu asarlaridan yana shu narsa ko'zga tashlanib turadiki, Hamza Hakimzoda bolalarga yaxshi tarbiya berish uchun xalq og'zaki adabiyotidan ijodiy foydalangan. U o'zbek xalq ertaklari va masallarini yangi mazmun bilan boyitib, yana xalqqa taqdim etgan. Bu ishda u rus va o'zbek klassik yozuvchilaridan o'rnak olgan". 1 Ushbu parchadan bilishimiz mumkinki, Hamzaning ma'rifat borasida amalga oshirgan ishlari tahsinga sazovor. U maktablar ochibgina qolmay, bu maktablarda o'qiydigan o'quvchilar uchun darsliklar ham yaratdi. Bu ishlarning ma'rifiy ko'lami nihoyatda keng hisoblanadi. O'sha davr kitoblarida bo'lgani kabi bu kitobda ham Chor Rossiyasining siyosati qattiq qoralangan. Hamzaning faoliyatiga eng katta to'siq sifatida yuqorida nomi zikr etilgan hukumat



ko‘rsatilgan. Ushbu kitobni o‘qish davomida qiziq bir paradoksli holatga duch keldik. Biz bilamizki, Hamza Hakimzoda Niyoziy Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabi jadidchilik faoliyatini yuritgan vakillardan hisoblangan. Ammo Sho‘ro davri darsliklarida Hamza jadid sifatida ta’kidlanmagan, aksincha, u jadidchilar bilan murosaga kela olmaydigan, ularga teskari munosabatdagi inson sifatida tasvirlangan. Quyidagi parchaga e’tiboringizni qarating:

“Burjua millatchi yozuvchilari, jadid yozuvchilari o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini bo‘g‘ishga uringanlar. Ular o‘zbek xalqi singdira olmaydigan arxaik so‘zlardan ko‘plab ishlatib, o‘zbek tilini qiyinlashtirishga harakat qilganlar”[1:34 b.].

Bu ma’lumotlar haqiqatdan uzoq. Chunki jadidlar adabiyotni xalqdan uzoqlashtirish emas, balki xalqqa yaqinlashtirishga harakat qilishgan. Ular adabiyotni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida turli shakllar, janrlarni sinab ko‘rganlar.

Endi 1979-yilda chop etilgan “O’zbek sovet adabiyoti” maktab darsligi haqida mulohaza yuritamiz. Sarvar Azimovning ushbu kitobida Hamza haqidagi ma’lumotlar inqilobga hamd-u sano o‘qish bilan boshlanadi. Birgina abzasda 3 marta revolutsiya degan so‘zga duch kelish ham uchraydi, bu ham o‘scha davr uchun xos xususiyatlardan biridir. Mazkur kitobda Hamza tug‘ilganidayoq inqilobchi, ateist bo‘lib tug‘ilganday taassurot qoldiradigan ma’lumotlar keltirilgan. Hamzaning tarjimayi holidan parcha keltiriladi: “Otam o‘qimishli bo‘lgani uchun, - deb yozadi u avtobiografiyasida, - 1898 yilda o‘zbekcha, forschaga tom savodli bo‘lib, 1899 yildan 1906 yilgacha madrasada eski usul bilan dars o‘tishda davom etdim”. Madrasada, asosan, diniy darslar o‘qitilar edi. Bu Narsa Hamzaga yoqmaydi. U madrasadan chiqib, o‘zicha bilim olishga kirishadi. Rus tilini sevib o‘rganadi, badiiy adabiyotga qiziqadi. O’zbek va fors-tojik adabiyotlari hamda ulug‘ rus adabiyoti klassiklari asarlarini qunt bilan o‘qiy boshlaydi, xalq ertaklari, dostonlari va ashulalarini zehn qo‘yib tinglaydi”.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimiz asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

Sovet davri darsliklarida Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va faoliyati hukmron mafkura nuqtayi nazaridangina yoritilgan. Bu ma’lumotlarda o‘lg‘usi shoirni bolalikdan boshlab inqilobchi bo‘lgan, degan iddaolar bo‘rtib bo‘y ko‘rsatib turadi.

Hamza faoliyatining muhim jihatlari ham sovet darvri darsliklarida atroficha yoritilgan, jumladan, uning dastlab madrasa ta’limini olganligi, fors-tojik tillarini puxta o‘rganganligi, undan so‘ng rus tilini o‘rganib, bu til orqali rus adabiyoti bilan



tanishganligi haqidagi malumotlar o‘z tarjimayi holiga asoslangan holda keltiriladi. Bunda ham asosiy urg‘u Hamzaning rus tili bilimdoni ekanligini maqtashga berilganini kuzatamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Hamza Hakimzoda Niyoziy" (uz). Ensiklopedik lug‘at. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 1990. p. 515. 5-89890-018-7.
2. Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.
3. Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
4. Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой учёный, (14), 262-263.
5. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
6. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
7. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
8. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRYLAR: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
9. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке, 1(1), 172-178.
10. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultutive structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.
11. Hasanovna, D. M. (2023). Occurrence of English Verb Predicates in the Functional-Semantic Field. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 518-524.